GLOBAL IQLIM O‘ZGARISHI SHAROITIDA MARKAZIY OSIYO DAVLATLARINING EKOLOGIK HAMKORLIK MEXANIZMLARI

Jo‘rayeva Shahina Narzullayevna
s.f.f.d. (PhD), O‘zDJTU Xalqaro jurnalistika fakulteti
Siyosiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi
shahrus8689@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada global iqlim o‘zgarishining Markaziy Osiyoga, birinchi navbatda mintaqaning suv resurslariga ko‘rsatayotgan ta’siri hamda mintaqa davlatlari o‘rtasidagi ekologik hamkorlikning institutsional, huquqiy va moliyaviy mexanizmlari tahlil qilinadi. ICWC, IFAS, Chu-Talas komissiyasi, CAREC dasturi va Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasidagi tashabbuslarning imkoniyat va cheklovlari ko‘rib chiqiladi. Mavjud mexanizmlarning fragmentarligi, yuqori va quyi oqim davlatlari manfaatlari to‘qnashuvi hamda ma’lumot almashinuvining zaifligi ularning samaradorligini pasaytirayotgani asoslanadi va hamkorlikni kuchaytirish bo‘yicha amaliy takliflar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: Markaziy Osiyo, iqlim o‘zgarishi, ekologik hamkorlik, transchegaraviy suv resurslari, ICWC, IFAS, iqlim diplomatiyasi, ekologik xavfsizlik.

Аннотация: В статье анализируется влияние глобального изменения климата на Центральную Азию, прежде всего на водные ресурсы региона, а также институциональные, правовые и финансовые механизмы экологического сотрудничества между государствами региона. Рассматриваются возможности и ограничения инициатив, реализуемых в рамках МКВК (ICWC), МФСА (IFAS), Комиссии по реке Чу и Талас, программы CAREC и Шанхайской организации сотрудничества. Обосновывается, что фрагментарность существующих механизмов, противоречия интересов государств верхнего и нижнего течения рек, а также недостаточный уровень обмена информацией снижают эффективность регионального сотрудничества. В статье выдвигаются практические предложения по укреплению экологического взаимодействия между странами Центральной Азии.

Ключевые слова: Центральная Азия, изменение климата, экологическое сотрудничество, трансграничные водные ресурсы, МКВК (ICWC), МФСА (IFAS), климатическая дипломатия, экологическая безопасность.

DOI: 10.5281/zenodo.24240480

Kirish. Markaziy Osiyo iqlim o‘zgarishi ta’siriga eng zaif mintaqalardan biri hisoblanadi. Bu yerda harorat global o‘rtacha ko‘rsatkichdan tezroq ko‘tarilmoqda, natijada tog‘ muzliklari qisqarib, suv taqchilligi chuqurlashib bormoqda [1; 2]. Mintaqaning qurg‘oqchil va yarim qurg‘oqchil hududlarida aholi turmushi, qishloq xo‘jaligi va energetika bevosita Amudaryo hamda Sirdaryo havzalari oqimiga bog‘liq. Shu bois iqlim o‘zgarishi Markaziy Osiyoga, avvalo, suv sektori orqali ta’sir ko‘rsatadi, mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish esa barqaror taraqqiyotning zaruriy shartiga aylanadi [3]. Mazkur maqolaning maqsadi mintaqa davlatlari o‘rtasidagi ekologik hamkorlik mexanizmlarining hozirgi holatini baholash, ularning samaradorligini cheklayotgan omillarni aniqlash va amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda tizimli-institutsional yondashuv, qiyosiy tahlil hamda so‘nggi yillarda nashr etilgan xalqaro ilmiy manbalarni kontent-tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

Prognozlarga ko‘ra, 2050-yilga borib mintaqa muzliklarining 30 foizdan ortig‘i yo‘qolishi, O‘zbekistonda esa suv taqchilligi 15 mlrd m^3 ga yetishi mumkin [2]. Tyan-Shan va Pomir-Oloy muzliklarining massa balansi bo‘yicha uzoq muddatli kuzatuvlar ham 1960-yillardan buyon muzliklar izchil ravishda massa yo‘qotib kelayotganini ko‘rsatmoqda [4]. Qisqa muddatda muzliklarning erishi daryolar oqimini vaqtincha oshirsa-da, uzoq istiqbolda suv hajmi kamayadi. Boshqacha aytganda, mintaqa bugun “kechiktirilgan inqiroz” bosqichida turibdi. Iqlim omili mintaqadagi mavjud tuzilmaviy ziddiyatlarni yanada keskinlashtiradi. Yuqori oqimda joylashgan Qirg‘iziston va Tojikiston suvdan qish mavsumida gidroenergetika maqsadida foydalanishdan manfaatdor bo‘lsa, quyi oqimdagi O‘zbekiston, Qozog‘iston va Turkmaniston uchun yozgi vegetatsiya davrida sug‘orish suvi hal qiluvchi ahamiyatga ega [2; 5; 6]. Suv kamaygan sari bu manfaatlarni muvofiqlashtirish murakkablashadi.

SSSR parchalanganidan so‘ng yagona tizim sifatida qurilgan suv infratuzilmasi yagona boshqaruvsiz qoldi. Biroq 1992-yilgi Olmaota kelishuvi va keyinroq imzolangan Sirdaryo bo‘yicha kelishuv mavjud taqsimot tartiblarini saqlab qoldi [7]. Mintaqaviy hamkorlikning asosiy tuzilmalari – Suv xo‘jaligi bo‘yicha davlatlararo muvofiqlashtiruvchi komissiya (ICWC) va Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi (IFAS) ham aynan shu davrda tashkil etildi [6; 7]. Ilmiy adabiyotda ushbu tizimga turlicha baho beriladi. G.S. Baykushikova va hammualliflari mintaqaviy suv arxitekturasini zaif xalqaro rejim yoki tasodifiy kelishuvlar yig‘indisi sifatida emas, balki ko‘p bosqichli gibrid tizim sifatida talqin etadi [6]. Y. Yu va hammualliflari esa mavjud kelishuvlar ekologik falokatlarning oldini olishga ulgurmasligi mumkinligini ta’kidlab, suv boshqaruvi siyosiy aralashuvsiz, gidrografik (havza) chegaralari asosida tashkil etilishi lozimligini qayd etadi [1].

Bugungi kunda mintaqada ekologik hamkorlik bir necha darajada amalga oshirilmoqda (1-rasm). Ikki tomonlama darajada Qozog‘iston va Qirg‘iziston o‘rtasidagi Chu-Talas komissiyasi suv-energetika almashinuvining ijobiy namunasi sifatida e’tirof etiladi [6]. CAREC dasturi mintaqaviy muloqot, investitsiyalarni jalb etish va siyosatni muvofiqlashtirish maydoni vazifasini bajaradi [2; 8]. Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasida esa Markaziy Osiyo ekologik xavfsizlik hamjamiyatini shakllantirish g‘oyasi ilgari surilmoqda [9].

Daraja	Mexanizm / platforma	Asosiy vazifasi
Mintaqaviy	ICWC (1992)	Amudaryo va Sirdaryo suvini taqsimlash, limitlarni kelishish
Mintaqaviy	IFAS (1993)	Orol muammosi bo‘yicha dasturlar, moliyaviy muvofiqlashtirish
Ikki tomonlama	Chu-Talas komissiyasi	Qozog‘iston – Qirg‘iziston: inshootlardan birgalikda foydalanish, xarajatlarni bo‘lishish
Moliyaviy	CAREC dasturi	Mintaqaviy muloqot, investitsiyalar, siyosatni muvofiqlashtirish
Muloqot	Green Central Asia	Iqlim va xavfsizlik bo‘yicha transchegaraviy muloqot
Keng mintaqaviy	SHHT	Ekologik xavfsizlik hamjamiyatini shakllantirish

1-rasm. *Markaziy Osiyoda ekologik hamkorlikning asosiy mexanizmlari (muallif tomonidan [2; 6–9] manbalar asosida tuzilgan)*

2018-2024-yillarda mintaqa davlatlari rahbarlarining suv boshqaruviga oid bir qator yuqori darajadagi uchrashuvlari bo‘lib o‘tdi. Bu hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish uchun siyosiy iroda mavjudligini ko‘rsatadi [2]. Shu bilan birga, iqlim diplomatiyasi bo‘yicha tadqiqotlar hal qiluvchi omil deklaratsiyalar emas, balki qabul qilingan rejalarni amaliy qadamlarga aylantirish qobiliyati ekanini ta’kidlaydi [10].

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, mavjud mexanizmlar fragmentar xususiyatga ega va ularning amaliy samarasi cheklangan. Buning asosiy sabablari quyidagilar: birinchidan, yuqori va quyi oqim davlatlari manfaatlarining (gidroenergetika va irrigatsiya) qarama-qarshiligi; ikkinchidan, institutlarning zaifligi va qarorlar ijrosini ta’minlovchi mexanizmlarning yetishmasligi; uchinchidan, gidrologik va ekologik ma’lumotlar almashinuvining yetarli emasligi [2; 5; 6]. Bunga yangi tashqi omillar ham qo‘shilmoqda. Afg‘onistonda qurilayotgan Qo‘shtepa kanali Amudaryo havzasida mintaqaviy taqsimot tizimiga kirmagan yangi yirik suv iste’molchisini paydo qiladi va jiddiy geosiyosiy xavflarni keltirib chiqaradi [5; 11]. Ilmiy sohada

ham nomutanosiblik saqlanib qolmoqda: mintaqa haqidagi tadqiqotlar ko‘paygan bo‘lsa-da, mahalliy olimlarning ulardagi ishtiroki past darajada qolmoqda [12]. Yuqoridagi tahlil asosida mintaqaviy ekologik hamkorlikni kuchaytirish uchun quyidagi amaliy choralarni taklif etamiz:

– Markaziy Osiyo davlatlari uchun yagona ochiq gidrometeorologik ma’lumotlar platformasini yaratish: daryo oqimi, suv omborlari hajmi va muzliklar holati bo‘yicha ma’lumotlarni real vaqt rejimida almashish ishonch tanqisligini kamaytiradi;

– Chu-Talas tajribasini Sirdaryo havzasiga moslashtirish: yuqori oqim davlatlarining qishki energiya taqchilligini quyi oqim davlatlari tomonidan elektr energiyasi yetkazib berish hisobiga qoplash evaziga yozgi suv chiqarishni kafolatlovchi uzoq muddatli kompensatsion kelishuvlar tuzish;

– ICWC va IFAS huquqiy maqomini mustahkamlash, qarorlar qabul qilishda havza tamoyiliga o‘tish va ijro ustidan monitoring mexanizmini joriy etish;

– Afg‘onistonni texnik darajadagi suv muloqotiga bosqichma-bosqich jalb etish orqali Amudaryo havzasidagi yangi xavflarni oldindan boshqarish;

– fan va siyosat o‘rtasidagi aloqani kuchaytirish: mintaqa universitetlari va tadqiqot markazlarining qo‘shma konsorsiumini tuzish, bilimlarni birgalikda ishlab chiqish va yosh mutaxassislarni suv diplomatiyasi bo‘yicha tayyorlash [3; 12; 13].

Xulosa qili aytganda, global iqlim o‘zgarishi Markaziy Osiyo uchun eng avvalo suv xavfsizligi muammosidir va uni hech bir davlat yolg‘iz hal eta olmaydi. Mintaqada ICWC, IFAS, Chu-Talas komissiyasi, CAREC va ShHT kabi ko‘p darajali hamkorlik mexanizmlari shakllangan, biroq ular fragmentar bo‘lib, iqlim tahdidlarining sur’atiga mos kelmaydi. Shu sababli kelgusida asosiy e’tibor yangi tuzilmalar tashkil etishga emas, balki mavjud mexanizmlarning huquqiy kuchini oshirish, ma’lumotlar ochiqligini ta’minlash va suv-energetika manfaatlarini o‘zaro kompensatsiya asosida muvofiqlashtirishga qaratilishi lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yu Y., Pi Y., Yu X. va boshq. Climate change, water resources and sustainable development in the arid and semi-arid lands of Central Asia in the past 30 years // Journal of Arid Land, 2018, Vol. 11. –P. 1-14. 10.1007/s40333-018-0073-3

2. Prniyazova A., Turaeva S., Turgunov D., Jarihani B. Sustainable Transboundary Water Governance in Central Asia: Challenges, Conflicts, and Regional Cooperation // Sustainability. – 2025. 10.3390/su17114968

3. Krasznai M., Abdullaev I. Research and education as the drivers of a paradigm shift in Central Asian water governance and water diplomacy // Kazakhstan-Spectrum, 2025.

4. Asian Development Bank. CAREC 2030: Supporting Regional Actions to Address Climate Change: A Scoping Study. –Manila: ADB, 2023. 10.22617/spr230126-2

5. Abzhalov U. The problems of joint use of water resources in Central Asia // Bulletin of Osh State University. – 2025. 10.52754/16948610_2025_3_0_3

6. Байкушикова Г.С., Уткелбай Р.Е., Пермахан К. Региональное сотрудничество в сфере управления трансграничными водными ресурсами в Центральной Азии: гибридные формы институционального и политического взаимодействия // International relations and international law Journal. – 2026. 10.26577/irilyj.v114i2.1612

7. Tulindinova Z., Pulatov B., Batykova A. va boshq. Sustainable Irrigation in Central Asia: A Review of Historical Development, Water Governance, Climate Change, and Digital Transformation // Journal of Sustainability Research. – 2026. 10.20900/jsr20260069.

8. Asian Development Bank. Regional Action on Climate Change: A Vision for the Central Asia Regional Economic Cooperation Program. – Manila: ADB, 2024. 10.22617/spr240218-2.

9. Miao J.-C., Dzhumabaeva M. Constructing a Central Asian environmental security community: an analysis of Kyrgyzstan's role within the Shanghai Cooperation Organization framework // Bulletin of Kyrgyz State University named after I. Arabaev. – 2025. 10.33514/1694-7851-2025-3/2-504-517.

10. Алтынбекова А., Ахмедьянова Д. Климатическая дипломатия в Центральной Азии: контекст, вызовы и возможности // Журнал исследований Центральной Азии. – 2025. 10.52536/3006-807x.2025-3.003.

11. Abdurasulov J. The Role of Water Resources in Geopolitical Processes in Central Asia // World Economy and International Relations. – 2025. – Vol. 69, № 12. – P. 102-108.

12. Иссаков Ю., Саркыткан К., Гаич Т. и др. Трансграничная водная безопасность в Центральной Азии в условиях изменения климата: институциональные проблемы, адаптационные меры и перспективы дальнейших исследований // Water. – 2025. 10.3390/w17121795.

13. Сайдалиева З., Муччоне В., Шахгеданова М. и др. Адаптация к изменению климата в горных регионах Центральной Азии: систематический обзор научной литературы // Wiley Interdisciplinary Reviews: Climate Change. 2024. – Т. 15. 10.1002/wcc.891.